

OLIIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING FAN,TA’LIM MASALALARIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI.

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
“Pedagogika va psixologiya “kafedrası o’qituvchisi
Ibragimova Xurshida Xusanbayevna
Maktabgacha ta’lim pedagogika psixologiyasi
yo’nalishi 1-kurs-gurux talabasi
Yuldasheva Mohitabon Farhot qizi

Annatsiya: Talabalarning ilk talabalik yillaridan boshlab moslashuvchanligi ularga ko’rsatiladigan yordam, bilim olishga bo’lgan ishtiyoqi yokida bilimning qadrsiz va qiymatsiz bo’lib qolmasligi uchun kurash xalqimizda shunday gap bor “Talabalik oltin davr” bu yosh talabaning fikricha xaqiqatdan xam oltin davr bo’la oladimi? Xamma talabalar xam bu davrning oltinga teng ekanligini tusgunib yetganmi? Talabalar bilan til topishishi va talabalik psixologiyasi xaqida.

Kalit so’zlar: psixologik, muassasa,tashkilot, jamiyat, instinkt, iminutet, jarlik Y.A.Kamenskiy, “Buyuk didaktika”, yunon, faylasuf, suqrot, ma’ruza, maktab, K.D. Uspenskiy, B.G. Ananayev, professional adaptatsiya,xarakter, ijtimoiy psixologik adaptatsiya, shaxs, aktiv.

KIRISH: Psixologik yetilgan insonlar xar qanday davlatning tayanch va harakat kuchi xisoblanadi. Bu masala bilan hozirgi kunda o’zini barcha shu jamiyatning bir bo’lagiman deb hisoblagan oila,muassasa, tashkilot va boshqalar jiddiy mas’uliyatni o’zlariga vazifa qilib olishi kerak. Talabalarni darsliklarga jalb etish ularda vaqtdan unumli foydalanish instinktini shakllantirish, hamda bilim olishga bo’lgan kuchli va ularni boshqalarga o’rnak bo’la oladigan darajaga olib chiqish,talabalarni yomon psixologik jarliklardan himoya qilish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Yoshlar kelajakning poydevori ularni nafaqat ota ona balki jamiyat, atrofida gilar xam ularning yetuk kamol topishiga, ilm olishiga, sog’lom bo’lishiga, xar xil illatlardan muhofaza qilishga ma’suldir. Masalan Y.A.Kamenskiy o’zining “Buyuk didaktika” Asarida bolalar va o’smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqadi. Yana shunga o’xshash buyuk olimlarning ishlarga bilim berish kerakligi xaqidagi fikri bir qancha. Yunon faylasufi Suqrotning bizgacha xech qanday yozma manbalarni yetib kelmagan, shu masalada uning bir shogirdi nega bilimlaringizni yozib qo’ymaysiz deganda, u sening jonsiz daraxt terisiga bo’lgan ishonching boqiy fikrlariga bo’lgan ishonchingdan ko’ra mustaxkamroq ekan deydi.Bundan ko’rinib turibdiki olingan bilim hech qanday qog’ozga muhtoj emas u shunday xam boqiy yashaydi. Qadimda aynan maruzalar o’rnini suxbatlar, munozaralar, tortishuvlar bilan o’tkazish va ko’rgazmali quollar bilan dars o’tish metodikasi kiritgan ilk poyqadamlardan biri ham Suqrotidir. Shu davrlardanoq ustoz va talaba an’analari bizgacha yetib kelgan.Endi buni tahlil qiladigan bo’lgan o’sha davr talablarining xozirgi kun talabalaridan farqi.Xo’sh talaba o’zi kim? Uni qanday tasavvur qilamiz uning psixologiyasi qanday?

Talabalik bevosita maktab yuqori sinflaridan boshlab shakllanib keluvchi holat hisoblanadi, bunga K.D.Uspenskiy “Eng qat’iyatlik” davri deya tarif beradi. Negaki shu davr kimning o’z kelajagini belgilashda va o’z ustida uzliksiz ishlashni boshlaydigan davr hisoblanadi. Ya’ni talabalik hayotning yana bir pog’onasidagi ko’tarilishidir. Buni qaysi o’smir qanday qabul qiladi. B.G.Ananayevning fikricha 17 dan 25 yoshlar oralig’ini shahsiyatini shakllanishiga muhim ahamiyatga ega bo’lgan tugallanuvchi va professionalizmning asosiy pog’onasi deb hisoblaydi .

Tasavvur qilamiz zamonaviy talaba oliygohining birinchi bosqichi talabasi kechagina maktab o’quvchisi bo’lgan, jamiyatning bir bo’lagi, bo’lgan o’zini yanada takomillashtirishga hamma imkoniyatlarga ega bo’lgan, lekin kerakli malakaga ega bo’lmagan va unga juda qattiq muhtojlikni sezayotgan shaxs. Bunda pedagogning vazifasi iloji boricha birinchi kurs talabasida o’z ustida ishlashga moslashuvchanlik xosil qilishdir. Ayni bir talabani o’rganish paytida albatta, uning individual qobiliyatlarini hisobga olish juda zarur. Ayrim talabalar boshlang’ich bosqichlaridan o’z qobiliyatlarini namoyon etadi, ayrimlari esa alohida e’tibor yoki ko’makka muhtoj.

Oliygo’ha moslashuv ya’ni adaptatsiya 2 xil bo’ladi

1) Professional adaptatsiya bunda dars sharoitining xarakteriga, shartlari va tashkillashishiga moslashishiga, va o’quv ishlarida mustaqil bo’lishlik xislatlarini namoyon bo’lishi .

2) Ijtimoiy psixologik adaptatsiya bunda individualning guruhga moslashishi va u bilan iliq munosabatlar o’rnatish, va o’zining shaxsiy xulq atvori namoyon bo’lishi.

Xulosa: Mas’uliyatli talaba qanday bo’lishi kerak u aktiv, mas’uliyatli, o’z oldiga maqsad qo’yan, insofli, ilg’or, qiziqishlari ko’lami keng ulardan asosiysi bilim va kelajakdagi kasb bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Maqsudova “Muloqot psixologiyasi
- 2” F. I. Xaydarov. “Umumiy psixologiya”,
3. N. I. Xalilova. “Umumiy psixologiya”
- 4 E. Goziyev. “Ijtimoiy psixologiya”
5. almavest.ru